

**PEDAGOGLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH ORQALI  
TA'LIM TIZIMIDAGI SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMI.**

*Samarqand davlat chet tillar instituti 1-bosqich tayanch doktaranti*

*Pulatova E'tibor Obidovna*

**Annatatsiya:** Maskur maqolada pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi ta'lim tizimining rivojlanishi va samaradorligini oshirishdagi roli, uzluksiz kasbiy rivojlanish bo'yicha chiqarilgan qonun va farmonlar hamda o'qituvchilik kasbining kelajak avlod tarbiyasidagi o'rni masalalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Tayanch iboralar:** «Kasbiy rivojlanish soati», uzluksiz kasbiy rivojlanishi, «Kasbiy rivojlanish kuni», texnika rivojlanishi, axborotni izlash va tahlil qilish, Kreativ fikrlash. malaka oshirish muassasasi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida ustoz zimmasiga eng muhim vazifa jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, ilm berish vazifasi yuklatilgan hatto ibridoiy jamoa tuzumidayoq o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ta'lim berish maqsadida muassasalar tashkil etilib, ularda tajribali hayotni ko'rgan oqsoqollar bolalarni tarbiyalar edi. O'qituvchilik kasbining paydo bo'lishi tarbiyaning kelib chiqishi bilan bog'liqdir. Yillar davomida bu kasb takomillashib rivojlanib bordi, har bir jamiyatda ham ustozlarni kelajak avlod tarbiyachilar deb alohida hurmat ko'rsatilib kelingan. Ulug' mutafakkir she'riyat mulkining sultonи hazrat Mir Alisher Navoiy o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini quydagicha ta'riflaydi:

Agar shogird shayxulislom, agar qozidir

Agar ustoz andin rozi, tangri rozidir<sup>1</sup>

Mazkur satrlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bundan tashqari, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Al-Farobiy va Nasriddin Tusiy asarlarida ham ustozlarni ulug'lash haqida fikrlar keltirib o'tilgan bo'lib, hozirgi kelib ham bizning mustaqil

---

<sup>1</sup> X.Ibraimov,M.Quronov Umumiy pedagogika darslik. Sahhoh-2023 .19-bet.  
<https://scientific-jl.com/>

yurtimizda ustozlar e'zozlanib kelinmoqda. Shu o'rinda shuni aytish kerakki, yurtimizda 1-oktabr kunini "Ustoz va murabbiylar kuni" deb e'lon qilinganligi buning yaqqol misolidir. Fan texnika rivojlanishi bilan birga zamonaviy ta'limda ustozlarga quyilayotgan talablar ham yil sayin ortib bormoqda, chunki davlatning rivojlanishi uning gullab yashnashi jahon bozorlariga sifatli mahsulot yetkazib berishi, dunyo tan olgan rivojlangan mamlakatga aylanish uchun o'sib kelayotgan yosh avlodning yuqori intellektual salohiyatiga ega bo'lishiga bog'liq. Bunday avlodni tarbiyalash uchun esa doimo o'z ustida ishlaydigan, uzluksiz kasbiy rivojlanishni o'z oldiga maqsad qilib quygan ustozlarning vazifalari beqiyosligi hech birimizga sir emas. Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi ta'lim tizimining rivojlanishi va samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga egadir. Bu jarayon ta'lim sohasidagi o'zgarishlarga moslashish, yangi metod va texnologiyalarni qo'llash, shuningdek, pedagoglarning professional malakasini oshirishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi [PQ-231-son](#) qaroriga muvofiq 2025-yil 1-yanvardan boshlab uzluksiz kasbiy rivojlanish vertikal tizimi joriy etildi.<sup>2</sup> Bu qarordan ko'zlangan bosh maqsad Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta'minlash, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratini muntazam oshirib borish, Prezident maktablarida to'plangan ilg'or tajribalarni umumiy o'rta ta'lim muassasalariga keng tatbiq etishdan iboratdir.

### **2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini kasbiy rivojlantirishning quydagи tartibi joriy etilishi belgilangan**

- maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini kasbiy ehtiyojlari va malaka toifasidan kelib chiqib tabaqlashgan ta'lim dasturlari asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishning vertikal tizimi (vazirlik — malaka oshirish muassasasi — ta'lim tashkiloti) yo'lga qo'yiladi;

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prizedentining 2024-yil 21-iyundagi [PQ-231-son](#) qarori.

<https://scientific-jl.com/>

**16-to'plam 2-son fevral 2025**

- maktabgacha va maktab ta'lifi tashkilotlarining xodimlari uchun besh yilda bir marotaba ishdan ajralgan holda o'tkaziladigan malaka oshirish kurslari joriy qilinadi;
- malaka oshirish tizimi natijalarini baholashning yangi tartibi joriy etiladi va uning doirasida maktabgacha va maktab ta'lifi tashkilotlari xodimlarining faoliyat samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi;
- Prezident maktablarida o'quvchilarni o'qitish, kasb-hunarga yo'naltirish, ularda tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalariga keng tatbiq etiladi

2025-yil 1-yanvardan boshlab pedagog va mutaxassis kadrlar kasbiy rivojlanishining uzluksizligini ta'minlash maqsadida barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida malaka oshirishning «Kasbiy rivojlanish soati», tayanch umumiy o'rta ta'lim muassasalarida esa, shuningdek, «Kasbiy rivojlanish kuni» kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etiladi. Mentor-o'qituvchilar tarkibi «Kasbiy rivojlanish soati» va «Kasbiy rivojlanish kuni» tadbirlarini tashkil etish uchun har bir tuman (shahar)da yuqori malakali o'qituvchilar orasidan fanlar kesimida shakllantirish yo'lga quyilmoqda .

“Kasbiy rivojlanish kuni” – o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishslash va o'z bilimini muntazam boyitib borish, zamonaviy o'qitish metodikasi va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'quv-seminar, trening, mahorat darslari va mustaqil ta'lim tadbirlari o'tkazilishi belgilangan haftaning muayyan kuni.

“Kasbiy rivojlanish soati” – kasbiy rivojlanish kunlarida tashkil etilgan o'quvlarda o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirilgan yangi bilim va ko'nikmalarni o'zları faoliyat ko'rsatayotgan umumta'lif maktablarida qo'llashlarini tahlil qilish, ularga zarur metodik yordam ko'rsatish, kasbiy rivojlanish uchun tavsiyalar berish, dars kuzatish, refleksiv amaliyot hamda muktab negizida malaka oshirish tadbirlari

o'tkaziladigan soatlar<sup>3</sup>.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishning maqsadi: "Xodimlarning egallab turgan lavozimlari, mutaxassisligi yoki dars beradigan fanlari bo'yicha kasbiy va pedagogik mahorati doimiy ravishda o'sib borishini, ularning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, o'qitishning interaktiv usullari bo'yicha kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlashdan iborat"<sup>4</sup>.

Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga ahamiyat berish, nafaqat o'qituvchilar uchun, balki butun ta'lim tizimi va uning foydalanuvchilari (o'quvchilar) uchun juda muhimdir. Bu jarayonning ta'limdagi samarasi, o'qituvchilarni yanada tajribali va malakali qilib, ta'lim sifatini oshiradi. O'z ustida doimo izlanishda bo'lган ustozgina bugungi kun talabiga mos o'quvchini yetishtira oladi. Uzluksiz rivojlanish orqali quyidagi afzalliklar kelib chiqadi:

- Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi ularga yangi ilmiy-texnologik yutuqlar, ta'lim metodikalari va pedagogik texnologiyalarni o'rganishga imkon yaratadi. Bu o'zgarishlar o'qituvchilarning ta'lim berish uslublarini yangilashga yordam beradi, natijada o'quvchilarni samarali o'qitish mumkin bo'ladi. Pedagogning kasbiy rivojlanishi o'quvchilarga ta'lim berish sifatini oshiradi. Yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadi va o'qish jarayonini interaktiv qiladi, shu bilan birga ularning ta'limga bo'lган qiziqishlarini oshiradi.
- Ustozlarning o'z kasbiy ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilash va rivojlantirishlari ularga o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish, ularning ehtiyojlariga moslashish va individual yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini beradi. Bu ayniqsa turli o'quvchilarning xususiyatlarini inobatga olgan holda, ta'limning sifatini oshiradi. Yangi pedagogik metodlar, masalan, loyihaviy ta'lim, jamoaviy ish, kritikal fikrlashni rivojlantirish, va zamonaviy

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil "7"-avgustdagи 246-sон buyrug'iiga 2-ILOVA

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17-yanvardagi 25-sон qarori

texnologiyalarni ta'lif jarayoniga joriy etishga imkon yaratadi. Bu o'quvchilarga ko'proq interaktiv va ijodiy faoliyatni taqdim etadi.

- Kasbiy rivojlanish pedagoglarni o'z ishiga bo'lgan qiziqishlarini saqlab qolishga va yangiliklarni o'zlashtirishga undaydi. O'qituvchilar yangi yutuqlar va malakalarni egallashni o'zlarini rivojlantirish va kasbiy o'sish sifatida qabul qilishadi, bu esa ularga ishlashda yanada yuqori motivatsiya beradi.
- Bilim almashish ta'lif muassasasida ma'lum qoidalar va tartiblarga muvofiq bilimlarning doimiy aylanishini nazarda tutadi. Ta'lif muassasasi pedagoglari o'zlarining bilimlarini – ma'ruzalar, dasturlar, tajriba tahlillari kabi, hamda norasmiy bilimlarni – professional uchrashuvlar va pedagogik jamoalarda ishlash doirasida bo'lishishlari mumkin.
- Kreativ fikrlash pedagogning kasbiy faoliyati davomida rivojlanadi, bilim va malakalarning to'planishi izlanishga qarab amalga oshadi, pedagogning o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji o'z kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlarga bog'liq.
- Yangi o'qitish usullari, texnologiyalar va tadqiqot natijalari haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Shuningdek, ular boshqa o'qituvchilar bilan tarmoq qurib, o'z o'qituvchilik amaliyotlarini yanada rivojlantirish uchun yangi fikrlar olishlari mumkin.
- O'qituvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini o'z sohalarida yoki o'qitish metodlarida rivojlantirish maqsadida qo'shimcha o'z tezligiga va o'z jadvaliga muvofiq o'rganish imkoniyatini beradigan ko'plab onlayn kurslar va vebinarlar haqida ma'lumotlar oladilar. Bu kurslar sinfni boshqarish, ta'lif dizayni yoki maxsus fan bo'yicha bilimlarni o'z ichiga olishi mumkin..

Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi faqat bir o'qituvchi yoki ta'lif muassasasi uchun emas, balki barcha ta'lif tizimi uchun ham foydalidir. Har bir pedagogning malakasining oshishi ta'lif tizimining sifatini yaxshilashga, o'quvchilarni ta'lif olish jarayonida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. X.Ibraimov,M.Quronov Umumiy pedagogika darslik. Sahhoh-2023
2. O'zbekiston Respublikasi Prizedentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil "7 -avgustdagi 246-son buyrug'i
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarori